

2

"Yoshlar daftari" ko'rsatkichlari:
(04.04.2022)

Daftarga kiritilgan yoshlar:
134 110

Ijtimoiy yordam ko'rsatilgan yoshlar:
42 363

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

19 (16472)
2022-yil, 9-aprel
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Yoshlar siyosati
2-bet

Sirdaryo kitobxonlari
bilan maqtansa arziydi

Mahallada yoshlar yetakchisi
5-bet

Mening
tajribam

O'zlik
7-bet


Abdulla
QODIRIY



Amir Temur

– TAVALLUD TOPGAN KUN

6-betga
qarang ↓



Dilnavoz NE'MATULLAYEVA, Andijon viloyati, 2-o'rin:

– Bu tanlovda uchinchil bor qatnashishim. Tanlovning adolati-ga ishonmaganimda yana qayta ishtirok etmagan bo'lardim. Xudo xohlasa, keyingi yil "Spark"ni o'zim bilan olib ketaman.



S

IRDARYO KITOBXONLARI BILAN MAQTANSA ARZIYDI ➤

Yoshlar ijod saroyida davom etayotgan "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichi avj pallasiga yetdi. Haqiqiy kitobxonlar, bilimdonlar bahsiga aylangan tanlovda navbatdagi "Spark" o'z egasini topdi.

Tanlovning ikkinchi – 15–19 yosh toifasidagi bahslari yakunlandi. Haqiqiy bilim egalari munosib o'rinlarni egalladi. Jumladan, 3-o'rin Samarqand viloyati vakili Marjona Tursunmurodovaga nasib etdi. Marjonadan dastlabki shartlarda omad biroz yuz o'g'irgan bo'lsa-da, yakunda 286,9 ball bilan sovrindorlar qatoridan joy oldi. Samarqandlik qiz 30 million so'm pul mukofoti, maxsus statueta va 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Andijonlik Dilnavoz Ne'matullayeva 362 ball to'plab, 2-o'ringa munosib topildi va unga 50 million so'm, maxsus statueta hamda 2-darajali diplom topshirildi.

Tanlovning oliy mukofoti – Prezident sovg'asi – "Spark" avtomobili va 1-darajali diplomni Sirdaryo viloyati vakili Yorqinjon Hayitboyev qo'lga kiritdi. Bundan 4 yil avval shu bosqichda ishtirok etib, 14-o'rinni egallagan qahramonimiz bu gal jiddiy tayyorlanganini isbotladi. Umumiy natija 366,1 balga teng bo'ldi.




**Yorqinjon
HAYITBOYEV,
Sirdaryo viloyati, "Spark"
avtomobili sohibi:**

– 2017-yili "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichida eng oxirgi o'rinni band qilgandim. Oradan to'rt yil o'tib, g'olib bo'ldim. Quvonchim ichimga sig'mayapti, taasurotlarim katta. Avvalo, shunchalik bilim bergani, qo'llab-quvvatlagani, har doim mening yonimda bo'lgani uchun ustozlarimga rahmat aytaman. Shartlar judayam murakkab. Birinchi shartda yuqori ball olganimdan keyin o'zimga ishonchim ortdi. Harakat qildim. "Spark"ni esa dadajonimga topshiraman. Menimcha, bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Barchaga rahmat.

30 YOSHDAN OSHMAGAN BEMORLARGA DAVOLANISH UCHUN SUBSIDIYA AJRATILADI

1



Davolanish uchun subsidiya kimlarga va qancha miqdorda ajratiladi?

Ahvoli og'ir bo'lgan, 30 yoshdan oshmagan, ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'g'il-qizlar mamlakatimizda va xorijda davolanish uchun BHMning 50 baravarigacha miqdorida (hozirgi kunda 13 500 000 so'm) subsidiya olishi mumkin.

Shuningdek, "Temir daftari"ga kiritilgan oilalarning bemor farzandlari mamlakatda yoki xorijiy davlatda davolansa, xarajatlarning BHM 50 baravaridan oshmagan miqdordagi qismi tegishli soha mutaxassislari xulosasiga asosan "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

2

Subsidiya miqdori qanday asosga ko'ra belgilanadi?


Summa tibbiy ko'rik va davolanish xarajatlarning o'rtacha miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.

3



Subsidiya qanday ko'rinishda to'lab beriladi?

Tegishli muassasaning hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li bilan qoplab beriladi.



4

Agar bemorning ahvoli takroriy muolaja (masalan, jarrohlik amaliyoti)ni talab qilsa, unga ikkinchi marta yordam ko'rsatilishi mumkinmi?

"Yoshlar daftari" jamg'armasi imkoniyatidan foydalanganidan so'ng fuqaro "Yoshlar daftari"dan chiqariladi. Agar yana qaytadan "Yoshlar daftari"ga kiritilsa, yordamdan takroran foydalanishi mumkin.

5



Davolanish uchun subsidiya ajratish bosqichlari qanday?

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga subsidiya ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– tibbiy yordamga muhtoj yoshlarning sog'lig'i sektor ishchi guruhi tomonidan tegishli tibbiyot xodimlari jalb qilgan holda o'rganiladi;

– o'rganish natijasi bo'yicha kasalligi aniqlangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga yuboriladi va ularning xulosasi olinib, taqdim etiladi.





**Marjona
TURSUN-
MURODOVA,**
Samarqand viloyati,
3-o'rin

– Bu tanlov meni kitoblarda dunyosida yashashga undadi. Barcha ustozlarimga, yaqinlarimga katta rahmat aytaman. Otajonimga "Spark" mindirish mening orzum. Bunga, albatta, erishaman!

**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,**
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"YOSHLAR BALANSI"

MAMLAKATIMIZ YOSHLARI HAQIDAGI BARCHA
MA'LUMOTLARNI O'ZIDA AKS ETTIRADI

M

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yagona – mahalla-tuman-viloyat-respublika tizimi yaratildi. Mahallalarda ish boshlagan yoshlar yetakchilari barcha toifadagi yoshlar bilan ishlashni yo'lga qo'yib, ularning muammolarini manzilli hal etishga kirishdi.

Yoshlar yetakchilari, eng birinchi o'rinda, uyma-uy yurib, "Yoshlar balansini" to'liq shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni "Yoshlar daftari"ga kiritish hamda mahallalarda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga alohida ahamiyat qaratmoqda.

9348 TA MAHALLADA "YOSHLAR BALANSI" SHAKLLANTIRILDI

Birinchi bosqichda yetakchilar ta'lim va mehnat bilan qamrab olinmagan 16-30 yosh oralig'idagi 7 407 162 nafar yoshni xatlovdan o'tkazdi. Besh muhim toifa: bandlik, ta'lim, oilaviy, ijtimoiy va salomatlik holatlari asosida "Yoshlar balansini" shakllantirildi.

Har bir hududda alohida yuritiladigan balans yoshlarning ta'lim, bandlik, oilaviy, ijtimoiy va salomatlik holati bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish, mahallalardagi infratuzilma va obyektlar mavjudligi yuzasidan ma'lumotlarni umumlashirish orqali shakllanadi.

Xatlov jarayonlarining shaffofligini saqlab qolish, samaradorlikni oshirish uchun ham "Yoshlarbalansi.uz" elektron platformasi yaratilib, to'liq raqamlashtirildi. Ayni paytda 18 ta vazirlik va 43 ta idoraning axborot resurslariga ushbu platformani integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Muhammadbobur MANASOV,
Yoshlar ishlari agentligining
Yoshlar bandligini ta'minlash
va tadbirkorligini rivojlantirish
boshqarmasi bosh
mutaxassisi



42 363
NAFAR YOSHGA
"YOSHLAR DAFTARI"
JAMG'ARMASIDAN
65,4 MILLIARD SO'M
AJRATILDI.

KIM NIMA BILAN BAND?

Shakllantirilgan yoshlar balansini bizga quyidagi real ma'lumotlarni jamlash imkonini berdi:

Rasmiy va norasmiy
sektorda ish bilan
band bo'lgan yoshlar
soni

3 833 551

Ta'lim bilan
band bo'lgan
yoshlar
soni

1 633 384

Vaqtincha
ishsiz
yoshlar
soni

397 281

Mehnatga
layoqatsiz
yoshlar
soni

81 115

Vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanish
imkoniyati yo'q
(uy bekasi, bola parvarishida, abituriyent)
soni

1 204 596

Ta'lim va ma'lumotiga ko'ra,
1784 509 nafar yosh o'rta, 3 401 334
nafar o'rta maxsus, 530 731 nafar
oliy ma'lumotli.

Oilaviy holatiga ko'ra, 4 144 902
nafar yosh oilali, 3 187 055 nafar hali
turumush qurmagan, 43 509 nafar
ajrashgan. Beva ayol va erkaklar
31 696 nafarni tashkil etadi.

Ijtimoiy holati bo'yicha tahlil
qilinganda 808 340 nafar ijtimoiy
himoyaga muhtoj ekani, alohida
nazoratda turuvchilar 92 020 na-
farni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Yana bir muhim ko'rsatkich
yoshlarning salomatligi masala-
sidir, Xulosalarga ko'ra, yoshlarning
7 128 475 nafar sog'lom, 229 516
nafar kasalligi bo'yicha nazoratda
turadi.

**2244 NAFAR YOSHLAR
KASB-HUNARGA O'QITILIB,
SUBSIDIYA AJRATISH
ORQALI MEHNAT QUROL-
LARI BILAN TA'MINLANDI.**



YANGICHA MEXANIZM

"Yoshlar balansini" shakllantirish davomida yetakchilar aniqlagan ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj 134 ming 110 nafar yosh "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 42 ming 363 nafariga "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan 65,4 milliard so'm ajratildi.

3 808 nafar talabaga kontrakt to'lovlari, 1 065 nafar yoshlarga safarbarlik chaqiruvi rezervi badal pullari to'lab berildi, 2 244 nafar yoshlar kasb-hunarga o'qitilib, subsidiya ajratish orqali mehnat qurollari bilan ta'minlandi.

QIZIL, SARIQ, YASHIL...

**"YOSHLAR BALANSI" ASOSIDA
MAHALLALARNING YOSHLAR
BILAN ISHLASH SAMARADORLIGI
KO'RSATKICHLARI BAHOLANIB, "QIZIL",
"SARIQ", "YASHIL" TOIFALARGA
AJRATILDI. UNGA KO'RA:**

2 364 TA
(25,3%) mahalla
"qizil"

5 513 TA
(59%) mahalla
"sariq"

1 471 TA
(15,7%) mahalla
"yashil"

MAHALLALAR TOIFASI QANDAY ANIQLANADI?

Mahallalarning ko'rsatkichlari quyidagi yo'nalishlarda jami 100 ballik tizimda baholanadi:

- Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va yosh oilalar ajrimining oldini olish natijadorligi – 25 ball;

- "Yoshlar balansini" va "Yoshlar daftari" bilan ishlash natijadorligi – 25 ball;

- Yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorligini rivojlantirish natijadorligi – 20 ball;

- Yoshlarga zarur sharoitlar va infratuzilma yaratilganligi bo'yicha – 30 ball.

Ko'rsatkichlar 56 balddan kam bo'lsa, qizil; 71 balddan kam bo'lsa, sariq; 71 balddan yuqorisi yashil toifaga ajratiladi.

ZUKKO
KITOBXON

“ZUKKO KITOBXON” INTELLEKTUAL O'YINI

5

INTELLEKTUAL O'YIN

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR

8 NOMDAGI
KITOBLAR DOIRASIDA
O'TKAZILADIINTELLEKTUAL
O'YIN YOSH
TOIFASI18
YOSH
30
YOSHGACHA

INTELLEKTUAL O'YIN BOSQICHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQICHI

25-APREL

MAHALLADAGI

tadlim muassasalari yoki
kutubxonalarda

SEKTOR BOSQICHI

13-MAY

SEKTORDAGI

tadlim muassasalari yoki
kutubxonalarda

TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI

26-MAY

KUTUBXONA

yoki madaniyat markazida

HUDUDIIY BOSQICH

10-IYUN

YOSHLAR

markazida

RESPUBLIKA BOSQICHI

25-IYUN

SIRDARYO

viloyatida



Intellectual o'yinda

55 MING dan ortiq yoshlar
qamrab olinishi kutilmoqda■ (2021-yilda 35 mingga yaqin yoshlar
qamrab olingan)

Intellectual o'yinda ishtirokchilar

@YOSHLARMUROJAATI BOT
orqali ro'yxatdan o'tadi

Xarajatlari hududiy

“YOSHLAR DAFTARI”

jamg'armasidan ajratiladigan
mablag'lar hisobidan
moliyalashtiriladi

1 MAHALLA BOSQICHI

25-APREL

- 1 Intellectul o'yinda ishtirok etmoqchi bo'lgan yoshlar 6 nafardan iborat jamoa shakllantirgan holda arizalarini telegramdagi @yoshlarmurojaati bot yoki mahalla yetakchisi orqali topshiradi
- 2 Har bir o'yin uchun tanlab olingan kitoblar bo'yicha ko'chalar, mahallalar kesimida g'olib bo'lgan jamoalar keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi
- 3 Tanlovni tashkil etishda mahalladagi yoshlar yetakchisiga bevosita maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi ko'maklashadi

2 SEKTOR BOSQICHI

13-MAY

- 1 Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar sektor bosqichida o'zaro bellashadi
- 2 Savollar tuman(shahar)larda shakllantirilgan ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi, maxsus konvertlarga solib, muhrlanadi va sektorlarga yetkaziladi
- 3 Sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamoa tuman (shahar) bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

3 TUMAN(SHAHAR) BOSQICHI

26-MAY

- 1 Sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar tuman(shahar) bosqichida o'zaro bellashadi
- 2 Savollar hududlarda shakllantirilgan ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi, maxsus konvertlarga solib, muhrlanadi va tuman (shahar)larga yetkaziladi
- 3 Tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamoa intellektual o'yinning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

4 HUDUDIIY BOSQICHI

10-IYUN

- 1 Tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar hududiy bosqichida o'zaro bellashadi
- 2 Savollar respublikada shakllantirilgan ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi, maxsus konvertlarga solib, muhrlanadi va hududlarga yetkaziladi
- 3 Hududiy bosqichida g'olib bo'lgan jamoa intellektual o'yinning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi


5 RESPUBLIKA BOSQICHI

- 1 Hududiy bosqichlarda g'olib bo'lgan jamoalar intellektual o'yinning respublika bosqichida o'zaro bellashadi
- 2 Savollar respublika ekspertlar komissiyasi tomonidan tuziladi

MAHALLADA “YOSHLAR OVOZI” YANGRADI

Yoshlar ishlari agentligi va qator mutasaddi tashkilotlar hamkorligida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlikka keng jalb qilish maqsadida respublikamiz bo'ylab “Besh tashabbus olimpiadasi” tashkil etilmoqda.

Olimpiada doirasida yoshlarning musiqa va san'atga qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida “Bo'zatov iqtidorlarni kashf etadi” shiori ostida “Yoshlar ovozi” Bo'zatov fest tanlovi joriy yil 1-apreldan start oldi. Andijon viloyatida tanlovda qatnashish istagini bildirib, ariza topshirgan



Nazira UBAYDULLAYEVA,
Yoshlar ishlari agentligining Andijon viloyati boshqarmasi mutaxassisi

yoshlar soni 20 347 nafarni tashkil etadi.

Viloyatimizda tanlovning quyi bosqichi mahallalardagi yoshlar yetakchilari tomonidan ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Tanlovga onlayn ariza topshirib, ro'yxatdan o'tgan yoshlar 4 ta yo'nalish: baxshichilik, an'anaviy ijra, opera va estrada bo'yicha iqtidorlarini namoyish etdilar. Tanlovga hakamlik qilish uchun malakali soha mutaxassislari jalb qilinib, ishtirokchilarning chiqishlari baholab borildi.

“Yoshlar ovozi”ning ikki kunlik mahalla bosqichida jami 20 165 nafar yosh ishtirok etdi. Jumladan, 10–15 yosh toifasida 8327 nafar, 16–22 yosh toifasida 5852 nafar, 23–30 yosh toifasida 5986 nafar; yo'nalishlar kesimida tahlil qilinganda baxshichilik yo'nalishida 32 nafar, an'anaviy ijroda 9651 nafar, opera yo'nalishida 2876 nafar, estrada yo'nalishida esa 7606 nafar yosh o'z iqtidorlarini namoyish etdi. G'oliblar tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

MENING TAJRIBAM

Ilk faoliyatimni yoshlar tashkilotida yetakchilikdan boshlaganman. Keyin tumanimizdagi 32-maktabda yoshlar yetakchisi bo'lib ishladim. Mahallada yoshlar yetakchisi sifatida saylanganimda bu sohada katta tajribaga egaman, deb ishonдим. Ammo bu men o'ylaganchalik oson ish emas ekan. Uning mohiyatini anglaganim sari qanchalar mas'uliyatli lavozimga saylanganimni tushunib boryapman.



MAHALLAMIZDA ISHSIZ YOSH QOLMADI

Vohidjon UMAROV,
Namangan viloyati
Pop tumanidagi
Chortoq mahallasi
hokim yordamchisi



Chortoq mahallasida hokim yordamchisi lavozimiga ishga qabul qilinganimda vazifalar haddan ortiq ko'p va murakkabdek tuyilayotgandi. Lekin mahallaga yoshlar yetakchisi kelgach, hamkorlikda juda ko'p egz u ishlarni qilishga qodirligimni his etyapman.

Ziyoda Dabonova bilan 48 nafar qiynalgan, yordamga muhtoj, ishsiz yoshlarni aniqlab, ularga qanday yordam ko'rsatish choralarini belgilab oldik. Ekin ekish niyatida bo'lgan yoshlarga auksionga qo'yilgan ekin maydonlarini olishga ko'maklashdik. Auksionda qatnashgan 72 nafar yoshning 35 nafari yerga 10 yillik egalik huquqini oldi.

2 nafar yoshga tadbirkorligini rivojlantirish uchun subsidiya asosida tovuq berildi. 8 nafar qizlarimiz yaqin hududda joylashgan "Shofirkon" tekstil MChJga tikuvchi bo'lib ishga joylashdi. 10 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj oiladagi 30 yoshga to'lmagan qizlarimizga tikuv mashinasi olish uchun yordam beryapmiz.

3 nafar yoshga haydovchilik guvohnomasi olish uchun o'qishga tavsiyanoma berdik. Yana biriga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishi uchun 60 million so'm imtiyozli kredit olib berishga ko'maklashdik. U yana 10 nafar yoshni ish bilan ta'minladi. Hozirgi kunga kelib mahallamizda birorta ishsiz yosh qolmadi.

Bu natijaga yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda erishdik.

Dastlabki bosqichda bizning bosh vazifamiz ko'chama-ko'cha yurib, har bir xonadondagi yoshlarni xatlovdan o'tkazish, bandligi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli va ijtimoiy holatini o'rganishdan iborat edi. Ular orasidan yordamga muhtoj, sog'lig'ida muammosi bor yoshlarni aniqlab, "Yoshlar daftari"ga kiritish uchun tavsiya etdim. Lekin buning uchun ariza topshirish, ularning sharoitini o'rganish, nihoyat, jam'armadan pul ajratish muayyan vaqt talab qiladi. O'tkir muammolarni esa bugunning o'zida hal etish lozim edi.

Masalani hal etish uchun yangicha tizim o'ylab topdim. Mahallamizda 6 ta ko'cha bor. Har bir ko'chada 4-5 nafardan moddiy imkoniyati yaxshi tadbirkorlar yashaydi. Ular bilan suhbatlashib, mahalladagi holatni tushuntirdim. Xatlov paytida aniqlangan 32 nafar ijtimoiy ko'makka, tibbiy yordam ko'rsatishga muhtoj yoshlarni ularga birlashtirib qo'ydim. Tadbirkorlar ham bundan xursand bo'ldi. Ularning aytishicha, mahalladagi qiynalgan oilalarga yordam qo'lini cho'zish istagi doim bo'lgan, ammo aynan kimga yordam zarur, ularga biror narsa taklif qilsa, qanday qabul qilishadi, degan savollarga javob bo'lmagan. Men o'z tashabbusim bilan bu ikki oila o'rtasiga ko'prik vazifasini o'tadim, desam, adashmayman. Va bundan o'ziga xos qoniqish hissini tuyaman.

Yaqinda mahallamizdagi "Yoshlar sayli"ni ham noodatiy tashkil qildik. Arqon tortish, tosh ko'tarish, kuch sinashish, qizlar va yigitlar o'rtasidagi velomarafon musobaqalarida qishlog'imiz yoshlari katta ishti-

**MEN BUGUN
YOSHLAR
UCHUN NIMA
ISH QILDIM,
ERTAGA YOSHLAR
MANFAATI
UCHUN NIMALAR
QILISHIM
KERAK**



yoq bilan qatnashadi. Qizlarimiz aytgan o'lan, lapar, yor-yorlar bayramga shukuh bag'ishladi. G'olib yoshlar qishlog'imiz tadbirkorlari tomonidan taqdirlandi.

Bayramdan so'ng ko'cha sardorlarimiz yolg'iz qariya, otaxon-u onaxonlarimiz holidan

xabar olib, ularni xursand qilishdi. Ko'cha sardorlarimiz o'z vazifalariga shunchalik ishtiyoq bilan kirishib ketishganki, ularni ko'rib yana ham harakat va ishtiyoq bilan rejalarni tuzayapman.

Bizning mahalla hududida birorta ham ijtimoiy obyekt yo'q. Izlagan imkon topar, izlamagan - bahona, deganlaridek, yon-atrofimizdagi mahallalarda joylashgan maktablar va stadionlarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun har kuni bir-biridan qiziqarli

tadbirlar o'tkazib kelyapman.

Sutkalik ishim yakunida uyga qaytar ekanman "Men bugun yoshlar uchun nima ish qildim, ertaga yoshlar manfaati uchun nimalar qilishim kerak", degan savolni o'zinga beraman. Savolga topilgan javob ertangi kunimga ish reja bo'lib xizmat qiladi.

177 IMKONIYAT



HAYDOVCHILIK KURSLARIDA O'QISH XARAJATLARI BO'YICHA KOMPENSATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-son farmonga muvofiq "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'g'il-qizlar uchun haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlarini bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari miqdorigacha va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badali qoplab beriladi.

Imtiyozga da'vogarlar:

- "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari;

- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Talabgorlar haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlari (BHM 4 baravarigacha) va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badali qoplash yuzasidan Yoshlar ishlari agentligining tegishli hududiy bo'limiga murojaat kiritadi.

Murojaatga talabgoring haydovchilik kurslarida o'qiganligi (o'qiyotganligi) yoki SchR harbiy xizmati o'taganligi (o'tayotganligi)ni tasdiqlovchi hujjatlari ilova qilinadi.

Kompensatsiya to'lovlari Yoshlar ishlari agentligiga Davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Arizalar o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish (tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda) esa bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi.

Toshkent viloyatida hududiy jihatdan katta bo'lgan 403 ta mahalladagi yoshlar yetakchilariga velosipedlar tarqatiladi. Bu haqida Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i Miraziz Mirsultonov ma'lum qilgan.

Velosipedlar uchun viloyat hokimligidan 806 million so'm ajratilgan.

“TEMUR TUZUKLARI”NING

VI

Buyuk davlat arbobi Amir Temur (1336-1405) o'zining o'tkir aql-zakovati, noyob yetakchilik qobiliyati, harbiy mahorati bilan jahon tarixida munosib o'rin tutadi. Sarkardaning hayot yo'li, davlat boshqaruvi, o'z faoliyati davomida erishgan muvaffaqiyatlari bir qator tarixiy asarlarda, jumladan, “Temur tuzuklari” kitobida ham yaqqol aksini topgan.

ASRLIK SAYOHATI

SOHIBQIRON KITOB YOZGANMI?

Mazkur shoh asar olti asrdan beri dunyo jamoatchiligi e'tiborini tortib kelmoqda. Ayni paytda uning turli qo'lyozma nusxalari va tarjimalari dunyoning turli nuqtalarida, bir qator nufuzli kutubxona, muzeylar va shaxsiy to'plamlarda saqlanmoqda. Ko'plab taniqli olimlar “Temur tuzuklari” ustida tadqiqotlar olib borishgan.

O'tgan davr ichida mazkur asar Amir Temur tomonidan yozilmagan, uning vafotidan ancha keyin yaratilgan, degan taxminlar ham ilgari surildi. Ammo asarning tili va uslubi, pand-nasihatlarining Amir Temur siyratiga mosligi, chuqur idrok, o'tkir zehni va donishmandlik bilan yozilgani, asardagi voqealar sohibqiron hayoti haqida hikoya qiluvchi bir qator ishonchli manbalar (Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Ibn Arabshohning “Ajoyib at-taqdur fi axbori Taymur” asari va hokazo) dagi ma'lumotlarga mos kelishi va boshqa bir qator tarixiy faktlar asar bevosita Amir Temur tomonidan yozilganini tasdiqlaydi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, asar dastavval Amir Temurning ona tili – eski o'zbek tilida yozilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy ham yuqorida nomi tilga olingan asarida Amir Temur davrida uning hayotidagi muhim voqealarni o'z ichiga olgan turkiy va forsiy asarlar mavjud bo'lganini aytadi. Shu paytgacha qadar Amir Temur faoliyati haqida uning hayotligida bitilgan turkiy tildagi asar bizgacha yetib kelmaganidan, bu o'rinda so'z “Temur tuzuklari” haqida borayotganini taxmin qilish mumkin.

Ushbu kitob asrlar davomida bir qator hukmdorlar uchun dasturlamal vazifasini o'tagan. Ehtimol, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, Abulg'azi Bahodirxon “Shajarayi turk” singari asarlarini yozishlariga ham aynan sohibqironning mazkur “Tuzuklar”i turk bergan bo'lishi mumkin. Ammo afsuski, asarning turkiy tilda bitilgan ilk qo'lyozmasi hanzugacha topilgani yo'q. Bu durdona asar topilganida, tariximizning bizga ma'lum bo'lmagan sahifalari ochilishi barobarida, o'zbek mumtoz adabiyoti ham yana bir go'zal durdona bilan boyigan bo'lar edi.

fakt

Temurning onasi Takina xonim. Otasi Amir Tarag'ay turkiy barlos urug'ining oqsoqallaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilgan.



Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi Dilafroz TO'RAYEVA chizgan surat.



YAMANDAN TOPILGAN “TUZUKLAR”

Bugun bizgacha yetib kelgan xilma-xil qo'lyozmalar hajmi, tarkibi, uslubi nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. Bizga yetib kelgan qo'lyozmalarning eng qadimgisi XVII asrga mansub bo'lib, u Boburiylar hukmronligi davrida, Hindistonda ko'chirilgan. Kitob muqaddimasida bitilishicha, Agrada Boburiylar saroyida xizmat qilgan shoir va tarjimon Abu Tolib al-Husayniy al-Oriziy at-Turbatiy Makkai mukarramada haj amallarini bajarib, ortga qaytayotganida Yaman hukmdori Ja'far Poshoning kutubxonasida turkiy tilda bitilgan bir noyob qo'lyozmaga duch keladi. Tarjimonning yozishicha, bu asarda Sohibqiron Amir Temurning yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan davrida boshidan kechirgan sarguzashtlari, davlat boshqaruvi usullari, vazir va amirlari, farzandlariga hukmronlik borasida bergan maslahatlari va yo'riqlari o'rin olgan.

At-Turbatiy bu bebaho qo'lyozmani o'zi bilan olib kelgan va uni sekin-astalik bilan forsiy tilga tarjima qila boshlagan. 1637-yilda asar tarjimasini to'la-to'kis bitkazib, uni Boburiy hukmdor Shohjahonga (1628-1659) tuhfa etgan.

Shohjahon asar bilan tanishib chiqqach, undagi voqealarni Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnomasi” bilan taqqoslab chiqishni Dekan muzofoti favjdori Muhammad Afzal Buxoriyga topshirib, xattot va muarrixlar o'zlaridan qo'shgan ortiqcha tafsilotlarni o'chirib tashlashni buyuradi.

Mazkur asarning shu paytgacha yetib kelgan barcha qo'lyozma va toshbosma nusxalari uchun aynan Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning tarjimai asos bo'lib xizmat qilgan.

Rustam JABBOROV.
O'za



QAYTA-QAYTA O'GIRILGAN

Markaziy Osiyoda hukm surgan xonliklar davrida ham bu asarga juda katta qiziqish bildirilgan. Shu bois, mazkur asarning forsiy qo'lyozmasi bir necha bor ko'chirilgan. Asli o'zbek tilida bitilgan bu asarni taqdir taqozosi bilan yana shu tilga tarjima qilishga ehtiyoj tug'ilgan. So'nggi ikki asr davomida “Temur tuzuklari” bir necha bor tilimizga o'girilgan. 1836-yilda Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1841)ning buyrug'iga ko'ra, Xo'jand qozisi Nabijon Mahdum Hotif mazkur asarni qisman tarjima qilgan. 1856-1857-yillarda Xiva xonligida mazkur asarni Muhammad Yusuf Rojii qisqartirilgan holda o'zbekchalashtirgan. Oradan bir yil o'tib, Xivada yana bir tarjimon Pahlavon Niyoz Devon – Komil Xorazmiy asar asosida, Muhammad Rizo Ogahiy tavsiyasiga ko'ra, yangi asar yaratgan. Mazkur asarlarning qo'lyozmalari bugungi kunda Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda.

1967-yil taniqli alloma Alixon-to'ra Sog'uniiy (1885-1976) asarning O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari bosh idorasining kutubxonasida saqlanayotgan forsiy qo'lyozmasidan o'zbek tiliga tarjima qilib, uning bir qismini “Guliston” jurnalida e'lon qilgan.

Istiqlol yillarida Amir Temur shaxsiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. 1996-yilda buyuk sarkardaning 660 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga muhtasham haykallar o'rnatildi. O'zbekistonda ulug' sarkarda nomi bilan ataladigan “Amir Temur ordeni” ta'sis etildi. Bularning bari o'zbek xalqining buyuk Sohibqironiga bo'lgan qo'snmas ehtiromi namunasi bo'ldi.

“Temur tuzuklari” bir necha bor nashr qilindi. Asarning turli faksimile nusxalari ham o'quvchilar e'tiboriga havola etildi.

“
ASARNING TURKIY TILDA
BITILGAN ILK QO'LYOZMASI
HANUZGACHA
TOPILGANI YO'Q.”

Abdulla Qodiriy nomi bilan ataladigan davlat mukofoti, o'quv muassasalari, ko'chalar, metro bekati, istirohat bog'lari, madaniyat maskanlari va ijod maktabi ro'yxatini sanash uchun barmoqlarimiz yetmaydi. Ammo biz Qodiriy haqida nimalarni bilamiz?

A

BDULLA QODIRIY


50

TAXALLUS


"Meni boylar, eshonlar ko'ra olmas edilar. Chunki men ularni ishchi tilidan chiqqan va sirlarini ochuvchi dushmanlari edim". Shuning uchun Qodiriy tanqidiy-hajviy maqolalarida ismini yashirib, 50 dan ortiq taxalluslarda imzo chekishga, ijod qilishga majbur bo'ladi.

NAHOTKI OTILMAGAN BO'LSA?..

"1950-yillarning oxirlarigacha Abdulla Qodiriyning o'g'il-qizlari huzuriga notanish kimsalar kelisharkan-da, ularga otalaridan qizg'in salomlar topshirishar ekan, Qodiriy hazrat sog'-salomatlar, nasib etsa, keladilar deyishar ekan. Hatto yigirma-yigirma besh yildan so'ng Tutqungohdan omon-eson qaytgan ba'zi kishilar: "Men Julqunboy degan yozuvchini ko'rdim; tishlari to'kilib ketgan, chol bo'lib qolgan" deganini eshitgan yigit hozir ham bor. Demak, Stalin ham Amir Olimxon tajribasidan ijodiy foydalangan bo'lsa ajab emas." (N.Boqiy, "Qatnoma").



Ushbu maqolada Qodiriy haqidagi sirlarni ochish uchun kalit vazifasini bajaruvchi manbalardan foydalaniib, bilimimizni kengaytirishga, asl millat farzandining ayanchli qismatini yorqinroq tasvirlashga tutindik.




"XALQ DUSHMANI" DEB E'LOQILINIB, OTUVGA HUKM QILINGAN...

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

ODDIY XALQ BILAN...

Qodiriy zamondoshlarining hikoya qilishicha, bog'bon oilasida dunyoga kelgan yozuvchida bog'dorchilik, umuman jismoniy mehnatga kuchli mehr bo'lgan. Uni ko'pincha bog' ishlari bilan mashg'ul holda ko'rganlar, "Hormang, ishlayapsizmi?" deb savol berishsa, "Yo'q, dam olyapman", der, agar bog'da kitob o'qib o'tirgan yoki biror nima yozish bilan band vaqti o'tkinchilar: "Dam olyapsizmi?" deyishsa, "Yo'q, ishlayapman" deb javob berar ekan. Yozuvchining adabiyotgacha va undan keyingi hayoti ham oddiy xalq orasida, mehnatda o'tdi: xizmatchi, vassachi (toqichilik), prikazchi, xalq militsiyasiga ko'ngilli, mirza, sarkotib...



NOANIQ QATLGOH

"Qatnoma"da yozilishicha, 4-va 5-oktabr kunlari davlat xavfsizligi komendanturasiga tegishli naqliyotgohdan bitta yuk mashinasi ajratilgan: o'sha yuk mashinasining yo'l xaritasi DXQsining qo'mitasida saqlanib qolgan.

Ammo bu hujjatdan Qodiriy va boshqa mahkumlarning qayerda qatl etilgani haqida aniq bir ma'lumot olish ilqisiz. Chunki hujjatda, haydovchiga aniq boradigan manzil emas, shunchaki noaniq yo'nalish ko'rsatilgan: "Chernyavkagacha va undan nariga".

ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA...

Shoir Mirtemir xotirlaydi: "Abdulla Qodiriy jahon bilgich, jahon kamtar, xushshubbat va bor-yo'g'i, butun sajiyasi siymosidan ayon, bir gaplik, o'ziga ishongan zabardast qalamkash edi. Oddiy kiyinar edi, butun adabiyotimiz uchun kuyinar edi".

Shoir Uyg'un xotiralaridan Qodiriyning qiyofasini yanada aniqroq tasavvur etish mumkin: "Abdulla aka shirin suhbat, xazil-mutoyiba, kulgini sevuvchi, qalami o'tkir bo'lsa ham nutqi yo'q. Majlislarda so'zlash taqozo qilsa, aytadigan so'zlarini avval yozib olib, o'qib berar edilar..."

K O L T A N



U bugun yosh-u qari, shoh-u gado - har birimizda bor, ardoqlab uni cho'ntagimizda olib yuramiz, uni aqlli qo'l telefonlarimizning qon tomiri deyish mumkin. Nafaqat qo'l telefon, kompyuter, elektromobil, juda ko'p elektr anjomlari usiz ishlamaydi, kosmosga uchishni esa usiz orzu qilmasa ham bo'ladi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu ma'danning oti - k o l t a n.

Tirik organizm singari so'zlar ham tug'ilib, o'lib turadi. Koltan ham kompyuter, qo'l telefoni singari yaqin o'tmishda paydo bo'lgan so'z bo'lib, kimyoviy minerallar qorishmasi - kolumbit-tantalitning qisqartmasidir. Bunday qisqartmaga uchrashi sababi - uning asosiy qazib oluvchilari bo'lmish Afrika xalqlari uni shunday

qisqartirib - koltan deb atay boshlagan va keyinchalik bu nom butun dunyoga yoyilgan. Korroziyaga o'ta chidamli bu ma'dandan ko'pgina elektr uskunalari uchun elektrolit kondensatorlar tayyorlashda foydalaniladi.

Koltan eng ko'p qazib chiqariladigan mamlakatlar asosan Afrika



davlatlari: Kongo demokratik respublikasi, Burundi, Ruanda, Uganda hisoblanadi. Dunyo miqyosida qazib olinadigan koltanning 80 foizi Kongo DRga to'g'ri keladi, o'zbek uchun paxta (cotton) qanday bo'lsa, kongolik uchun koltan (coltan) shunday.

Bu boylik oddiy kongoliklarga sira rushnolik keltirmagan, yaqin o'tmishda koltan va boshqa yer osti boyliklari Kongo va unga qo'shni davlatlarni urush o'chog'iga aylantirgan. Bu urushlarda millionlab odamlar qirilib ketgan.

Rus tilida bu ma'dan "kolumbit-tantalit" deyiladi, ammo dunyoning aksariyat tillarida "koltan" ishlatiladi. Xo'sh, biz bu so'zni lug'atimizga rus tilidan olishimiz kerakmi yoki turklar, inglizlar, fransuzlar va hokazo, dunyoning to'qson foiz aholisi singari "koltan" deyishimiz kerakmi? Albatta, "koltan"ning kelajagi porloq va lug'atimizga, albatta, "koltan" nomini kiritishimiz kerak. Axir cho'ntagimizda ko'tarib yuradigan narsaning nomini ham bilishimiz kerak-da.

Abduvohid HAYIT



imkon.uz/metsenat

Ta'lim imkoniyatlarini kengaytiruvchi bo'lim

Metsenat – imkon.uz platformasida ta'lim va san'at sohasida turli grant, stipendiya va tanlovlar e'lon qilinadi hamda ko'proq moddiy tomonlama qiyinchilik ko'rayotgan iqtidorli yoshlar qo'llab-quvvatlanadi.

1 yil ichida loyiha
1963 nafar talaba uchun
– 13 ta yo'nalishdagi ta'lim grantlari;
– 4 ta stipendiya taqdim etgan.
E'lon qilingan grant va stipendiyalarning umumiy miqdori 6 milliard 868 million so'mdan oshadi.

Imkon.uz loyihasining bir qismi hisoblangan bo'lim homiy tashkilot va oliy o'quv yurtlarida o'qishda yordamga muhtoj bo'lgan talabalarni bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini bajaradi. Platforma ushbu jarayonda barcha shaffofliklarni ta'minlaydi.



2021-yil iyul oyida Metsenat.uz loyihasi "Tahsin" mukofoti bilan taqdirlandi.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 82. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Shara" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bo'smaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-455, Adadi – 10573. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6